

TA'LIM TIZIMI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

*Dilbar Ilauatdinova*

*Nukus innovatsion instituti*

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism kafedrası*

*Assistent o'qituvchisi*

+998907357496

[ilawatdinovadilbar@gmail.com](mailto:ilawatdinovadilbar@gmail.com)

**Annonatsiya:** “Ta'lism sifati” keng qamrovli va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, bugungi kunda jamiyat hayotining hamda xalqaro ta'lism siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mazkur maqolada “ta'lism sifati” tushunchasi, ta'lism sifatiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy omillar, ularning ijobiy va salbiy tomonlari yoritilgan. Ushbu omillar ta'lism oluvchilarining tajribasini shakllantirish uchun qimmatli tavsiyalar beradi va tizimdagagi muammolarni hal etishda potensial strategiyalarni taklif qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ta'lism sifati, ta'lism dasturlari, ta'lism tizimi, madaniyat, tenglik, ijtimoiy omillar, ijtimoiy muhit, ta'lism oluvchilar, jamiyat, shaxs.

**Abstract:** “Educational quality” is a comprehensive and multifaceted concept, which today is becoming an integral part of society and international education policy. This article describes the concept of “quality of education”, various social factors affecting the quality of education, their positive and negative aspects. These factors provide valuable recommendations for shaping the learner experience and suggest potential strategies for addressing systemic issues.

**Keywords:** Quality of education, educational programs, educational system, culture, equality, social factors, social environment, learners, society, personality.

**Аннотация:** «Качество образования» – всеобъемлющее и многогранное понятие, которое сегодня становится неотъемлемой частью общественной и международной образовательной политики. В данной статье рассмотрено понятие «качество образования», различные социальные факторы, влияющие на качество образования, их положительные и отрицательные стороны. Эти факторы дают ценные рекомендации по формированию опыта учащихся и предлагают потенциальные стратегии решения системных проблем.

**Ключевые слова:** Качество образования, образовательные программы, образовательная система, культура, равенство, социальные факторы, социальная среда, обучающиеся, общество, личность.

Ma'lumki, jahon hamjamiyati hayotida fan-texnika yutuqlari va ilmiy kashfiyotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning negizida mazkur sohalardagi chuqur izlanishlarni, mashaqqatli mehnatni va yuksak salohiyatni,

shuningdek, berilayotgan ta’limning sifatini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e‘tiborning yuqori darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Globallashuv va keskin raqobat jahon miqyosida kuchayib borayotgan sharoitda har bir jamiyat a’zosining sifatlari ta’lim olishi va o‘rganilgan bilimlarni to‘g‘ri yo‘naltirishi obyektiv zaruriyat sanaladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonida 24-yanvarni “Xalqaro ta’lim kuni” deb e‘tirof etilishi hamda ilg‘or xalqaro ta’lim dasturlaridan keng ko‘lamda foydalanilayotganligi bunga yaqqol misoldir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ushbu sohani isloh qilish dolzarb hamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda yurtboshimizning: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz Vatanimizning yorug‘ istiqboli, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”, degan gaplari sifatlari ta’lim tizimiga bo‘lgan ehtiyojdan dalolatdir. 2017-yil 20-aprelda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev qarori bilan O‘zbekistonda ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining tuzilishi ta’lim tizimi sifatini oshirishdagi muhim qarorlardan biri bo‘ldi.[1]

Umuman olganda, “Ta’lim sifati” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, ta’lim oluvchilar o‘rtasida ta’lim mazmunini oshirish, individual imkoniyatlari, ta’lim tarbiya intilishlari va maqsadlariga muvofiq ta’lim jarayonining turli bosqichlarida erishadigan jismoniy, psixik, axloqiy va fuqarolik rivojlanishning ma’lum bir darajasini anglatadi.

Biz ta’lim tizimi sifatini yaxshilash, ta’lim oluvchilarining bilim salohiyatini oshirish kabi masalalarni tahlil qilar ekanmiz, bevosita ushbu jarayonga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni o‘rganamiz.

Ta’lim tizimiga ta’sir qiluvchi eng muhim ijtimoiy omillardan biri bu ijtimoiy-iqtisodiy holatdir. Kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan talaba va o‘quvchilar ko‘pincha akademik muvaffaqiyatga erishishda turli to‘sqliarga duch kelishadi. Jumladan resurslardan foydalanishning cheklanganligi, stratifikatsion kamsitilish kabilari. Bu omillar ta’lim oluvchining o‘qishiga va muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga sezilarli darajada to‘sqinlik qilishi mumkin. Boshqa tomondan, yuqori daromadli oila farzandlari ko‘proq ta’lim olish imkoniyatlari, resurslariga va qo’llab - quvvatlash tizimiga ega bo‘ladilar. Bu holatda, ta’lim olishdagi tabaqaviy muammolarga yechin topish talab etiladi.

Madaniy xilma-xillik ham ta’lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Turli madaniyatlarga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar guruhgaga yoki sinfga o‘ziga xos madaniy usullarni olib kirishadi, bu esa ular o‘rtasidagi o‘quv muhitini boyitadi. Biroq, madaniy tafovutlar, shuningdek, til to‘sqliari, turli kamsitilishlar, ba’zan millati, irqi, hatto dini tufayli kelib chiqadigan konfliktlar va ta’limdagi ma’lum bir ma’nodagi

tengsizlik muammolari kelib chiqishi ham mumkin. Bu o'rinda esa o'qituvchilar barcha o'quvchi va talabalar uchun tenglikni targ'ib qiluvchi inkluziv va madaniy ta'lif muhitini yaratishi muhim.

Ta'lif sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir ijtimoiy omil – bu ota-onalarning ishtiroki. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning bola ta'lida ishtirok etishi bolaning mavaffaqiyatiga hamda undagi yaxshi xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. Afsuski, bugungi kunda barcha ota-onalar ham farzandlari ta'lida faol ishtirok eta olmaydi. Bunga sabab vaqt, resurslar va bilim darajasi bo'lishi mumkin. Ota-onalar farzandlari yaxshi yashashi, yaxshi ta'lif muassalarida ta'lif olishi uchun ko'p ishlaydilar. Shu bois ularda bolalari bilan dars tayyorlashlari va o'qishlarini nazorat qilish uchun vaqt yetarli emasligi tabiiy hol.

Ta'lif tizimi sifatiga sotsial muhit ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va o'qishdan tashqari tadbirlarni o'z ichiga olgan jamoalarda ta'lif oluvchilar madaniyati va xulq-atvori yaxshi shakllanadi. Ular ko'proq kirishimli, intiluvchan va faol bo'lishga harakat qilishadi. Ammo bunday jamiyatda va faol jamoalarda bo'limgan o'quvchilarda qiziqish past bo'ladi. Ular bilim olishni, tanlovlarda qatnashishni yoqtirishmaydi. Atrofida ilmdan bebahra insonlar bo'lsa, ya'ni ijtimoiy muhiti pozitiv darajada bo'lmasa, albatta, ularagi ta'lif sifati ham yuqori bo'lmaydi. Shunday ekan, ta'lif oluvchilar doimo yaxshi ijtimoiy muhitni topishlari yoki shunday muhitni o'zlarini yaratishlari zaruriyatdir, deb o'ylayman.

Qolaversa, Ta'lif jarayoni sifatini oshirish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, yangi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, masofaviy ta'lif vositalarini rivojlantirish, o'quv dasturlarini yangilash kabi jarayonlarni amalga oshirish mumkin. Bunday qadamli va samarali o'zgarishlar ta'lif jarayonini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.

Ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi qator omillarni tahlil qilganimizda, ularning ko'p qirrali ekanligiga hamda mazkur ijtimoiy ta'sirlarni inkor etib bo'lmasligiga guvoh bo'ldik.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir jamiyat uchun ta'lif sifati muhim kategoriya va asosiy masalalardan biridir. Jamiyatda ta'lif sifatiga qanday erishish, degan dolzarb savolga o'qitish sifati va tarbiya jarayoni bирgalikda olib borilganda, deb javob bersak o'rinli bo'ladi. Chunki ta'lif tizimi va unda shakllangan shaxs jamiyat talablariga javob bera olishi, undagi farovonlikni ta'minlash uchun munosib xizmat qilishi talab etiladi.

Rivojlanayotgan jamiyatga zamonaviy bilimli, ma'naviyatli, ishbilarmon, har qanday sharoitda mustaqil qaror qabul qila oladigan, madaniyatlararo hamkorlikka tayyor, taqdiri uchun mas'uliyatni his qiladigan, o'zining ezgu maqsadi yo'lida og'ishmay harakat qiladigan, boshqalardan dinamikligi, konstuktivligi va kreativligi

bilan ajralib turadigan chinakam “SHAXS” kerak. Shuning uchun ham ta’lim tizimi nafaqat fuqarolik jamiyati sharoitida yashashga, balki shunday davlat va jamiyat yaratishga qodir bilimli va shijoatli insonlarni tayyorlashi kerak. Zero, mamlakat kelajagi uning taqdiri uchun kurashadigan yoshlar qo‘lida bo‘lsagina Yurtimiz ravnaq topadi va farovonlikka erishadi, desam o‘ylaymanki mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A new wave of evidence: The impact of school, family, and community connections on student achievement. National Center for Family & Community Connections with Schools.
2. Bankston, C. L., & Caldas, S. J. (1996). Majority African American schools and social injustice: The influence of de jure and de facto segregation on education. *The Urban Review*, 28(3), 223-240.
3. Ferguson, R. F. (2003). Teachers’ perceptions and expectations and the Black-White test score gap. *Urban Education*, 38(4), 460-507.
4. Пирназаров, Аллияр Бердигай Улы ИЖРО ХОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ВАКОЛАТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ // ORIENSS. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izhro-okimiyati-organlarining-davlat-hizmatlarini-k-rsatish-bilan-bo-li-vakolatlarining-u-u-iy-asoslari> (дата обращения: 08.11.2024).
- 5.Uza.uz
- 6.Gazeta.uz
- 7.Fayllar.org